
VODIY DERBISI "ISTIQLOL" STADIONIDA O'TKAZILADI

"Neftchi" jamoasi Superliganing oxirgi 2 ta bahsidan so'ng qisqa ta'tilga chiqqan edi. Bugun futbolchilar ta'tildan qaytib, 18 oktyabr sanasida bo'lib o'tadigan vodiy derbisi ("Neftchi"- "Navbaxor")ga puxta tayyorgarlik ko'rish uchun keng ko'lamdagi qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilgan muhtasham "Istiqlol" stadionida ochiq mashg'ulotlar o'tkazdi.

Mashg'ulotlardan oldin jamoa a'zolari, Farg'ona shahar hokimligi mutasaddilari, Farg'ona futbol assotsiatsiyasi rahbariyati, klub rahbariyati va faol muxlislar yangi ta'mirdan chiqarilgan "Istiqlol" stadionida jamoaning yuksalishi va rivoji uchun qilingan ishlar xayrli, mavsumdagi ko'rsatkichlar esa yuqori bo'lishligi va ushbu arena futbolimizning yanada rivoji va g'alabali natijalar davomli bo'lishini niyat qilgan xolda Qur'on tilovat qilindi, qo'y so'yilib, ehson qilindi.

Shundan so'ng, jamoa a'zolari mashg'ulotlarni boshlashdi. Mas'ullar tomonidan esa o'yinni tomosha qilishga keladigan muhlislar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish masalalari ko'rib chiqildi.

2022-10-12 22:25:49